

**Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi xodimlari tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoni(99 353 93 54)ga 27,28 fevral va 1-3 mart kunlari **241 ta** fuqarolardan murojaatlar bo‘ldi.Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlaridir.**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan umumiy **e’tirozli 6 ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli va Farg‘ona viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazilarida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemorlar davolanish hamda shifoxonadagi oziq-ovqatlar sifatidan, shifoxona sharoitidan noroziligini bildirib Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qilishdi.

Ushbu murojaatlar bo‘yicha shifoxona mas‘ullariga va xududiy bosh mutaxassislarga telefon orqali ma‘lumotlari berilib tibbiyot muassasa mas‘ullari ogohlantirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

Jamg‘armaning ishonch telefoniga Farg‘ona viloyatida yashovchi fuqarodan onasi **jigar ko‘chirib o‘tkazishga** muxtojligi yuzasidan moddiy yordam so‘rab **og‘zaki murojaat** qildi. Og‘zaki murojaat bo‘yicha fuqaroga bemor uchun **imtiyozli yo‘llanma orqali barcha tibbiy muolajalar bepul bo‘lishi ya’ni Jamg‘arma tomonidan qoplab berilishi tushuntirildi.**

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida faoliyat olib borayotgan shifokor **reimbursatsiya bo‘yicha** o‘z e’tirozlari bilan **og‘zaki murojaat** qildi. Ushbu murojaat yuzasidan viloyat bo‘linma boshlig‘iga telefon orqali ma‘lumot berildi, **og‘zaki murojaat mas‘ullar tomonidan o‘rganish jarayonida.**

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**